

**HOZIRGI KUNDA YOSHLAR YOZMA NUTQIDAGI SAVODXONLIK
MASALASI: MUAMMO VA YECHIMLAR****Xolmurodova Gulruxsor***Axborot texnologiyalar va menejment universiteti talabasi*

ANNOTATSIYA: *Mustaqil taraqqiyot yo'lidan dadil borayotgan, huquqiy demokratik jamiyat qurishga intilayotgan Respublikamizda har bir insonning ozod va erkin, farovon yashashini ta'minlovchi jamiyat barpo etilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ilm- ma'rifatli bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbqiq etish ta'lim tizimining barcha bosqichida ona tilining asosiy o'quv predmeti ekanligini, fanlarni egallash uchun avvalo, ona tilida to'g'ri, ifodali, tartibli va ijodiy fikrlash zarurligini namoyon etmoqda. Chunki til kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi. Shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o'stirish fanining umumiy ahamiyati katta.*

Kalit so'zlar: *Savodxonlik, yozma nutq, imlo qoidalari, imloviy va ishoraviy xatolar*

"Savodlilik" tushunchasining mazmun mohiyati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Siyosiy qarashlarning noxolisligi va milliy kamsitish ruhida yondashuvlar biror mamlakat yoki millat savodlilik darajasini belgilashda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, Chor Rossiyasida chiqadigan "Vestnik vospitaniya" jurnali 1900-yilda Turkiston o'lkasi nihoyatda qoloq hamda mutlaqo savodsiz elatlardan iborat va ularni savodli qilishi uchun kamida 4600 yil kerak degan soxta xulosani yozgan. Sho'ro davridagi deyarli barcha ilmiy manbalarda esa, 1917-yil oktabr oyi to'ntarishiga qadar O'zbekiston aholisining 1.5-2%igina savodli degan yolg'ondan iborat ma'lumotlar ko'rsatilardi. Holbuki, 1897-yilgi aholini ro'yhatga olish ma'lumotlariga ko'ra Rossiya markazi aholisining savodlilik darajasi 21%ga, Turkiston o'lkasi xalqining darajasi esa 19,5%ga tengligi qayd etilgan. Ilm-fan tinimsiz rivojlanayotgan, axborot texnologiyasi takomillashib, odamlar tafakkurining imkoniyati yuksalib borayotgan ayni kunlarda ham savodlilik darajasi dunyo miqyosida u qadar yuqori emas. Savodlilik YUNESKOning tegishli tizimlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez ko'payishi, bolalarning ta'lim tizimiga to'liq jalb etmasligi sababli savodlilikning pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Hatto yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda ham savodsiz kishilar miqdori aholi qatlamining kattagina foizini tashkil etadi. Shuning uchun ham 1966-yil YUNESKOning Bosh anjumanida 8-sentabr Xalqaro savod tarqatish kuni ekanligi belgilab qo'yildi. Savodlilik tushunchasi turli joylarda turlicha belgilanadi. Ayrim mamlakatlarda oddiy matnlarni o'qishni biladigan odam savodli hisoblangan bo'lsa, ba'zi yurtlarda o'qish bilan birga yozishni ham bilgan odam savodli hisoblangan. Shuning uchun ham savodlilik tushunchasi mohiyatini tayin etish masalasi demografik statistika va aholi ro'yxati

dasturlariga doir xalqaro yig'ilishlarda bir necha bor ko'rib chiqilgan. YUNESKOning 1958-yil Parijda bo'lib o'tgan 10 sessiyasida barcha mamlakatlarda savotlilik tushunchasini birxillashtirish maqsadida yozuvni tushunib o'qiy oladigan va o'zining kundalik hayotini yozma ravishda bayon qila biladigan kishilarni savodli hisoblashga kelishilgan. YUNESKO tavsiyalari asosida O'zbekiston hukumati oxirgi 3 yilda oliy ta'limga qamrab olinish ko'tsatkichi uch baravar -28%gacha ortgan. Bu raqamni 2030-yilgacha 60%gacha oshirish rejalashtirilgan.

21-asrning ikkinchi o'n yilligida moliya tizimining murakkablashishi aholining moliyaviy savodxonligi o'sishiga sezilarli darajada to'sqinlik qilmoqda. Bunday vaziyat global iqtisodiy tizimdagi tezkor o'zgarishlar va yangi voqeliklarga moslashish uchun vaqt yo'qligi sharoitida fuqarolar uchun mavjud bo'lgan moliyaviy vositalarni samarasiz yoki noto'g'ri boshqarishga olib keladi.

Yuqori moliyaviy noaniqlik sharoitida yashash yangi vositalar va xizmatlar bozorda doimiy paydo bo'lishi va ularning o'zgarishi, shuningdek, ijtimoiy va moliyaviy jarayonlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida vaqti-vaqti bilan yangilanishi, nima sodir bo'lganligini tushunishga va tushunishga vaqtlari bo'lmaganligi sababli odamlar turli sohalarda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Buning natijasida esa hatto firibgar tashkilotlar va soxta vositalardan foydalanish bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarning yo'qligi, shuningdek moliyaviy vositalardan foydalanish bo'yicha asosiy bilim va munosabatlarning dunyosida harakat qila olmaslik qo'rquvini keltirib chiqaradi va o'zlarining noto'g'ri qarorlarining salbiy oqibatlari moliya institutlariga, bank muassasalariga va umuman moliya tizimiga ishonchsizlikka olib keladi.

Fuqarolarning moliyaviy savodxonligi, iqtisodiy bilimlari yuksakligi darajasi nafaqat o'zlarining moddiy farovonligiga ta'sir qiladi, balki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning ob'yektiv "barometri" hisoblanadi. Iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish va ular uchun mustaqil ravishda javobgar bo'lish qobiliyati aholini kelajakka, davlat uchun esa iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni idrok etadigan fuqarolarning ko'payishini ta'minlaydi. Asosiy moliyaviy bilimlarning yetishmasligi, aksincha, hayot darajasini pasaytiribgina qolmay balki mamlakat iqtisodiy o'sish su'ratlarning pasayishga ham olib kelgan eng jiddiy to'siqlardan biridir.

Oldimizga qo'ygan ezgu g'oya va maqsadlarimizni amalga oshirish yo'lida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab ularning ijodiy kamol topishi yo'lida boshlang'ich ta'limning o'rni katta, sababi barkamol shaxslarni yaratishda boshlang'ich ta'lim poydevor vazifasini o'taydi. O'sib kelayotgan avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda boshlang'ich sinf muhim bosqich sanaladi. Savodxonlikning muhim vazifasi to'g'ri yozish, to'g'ri o'qish hisoblanadi. To'g'ri yozishda imlo qoidalarini bilish muhim sanaladi. Uni qay tarzda o'rgatish esa o'qtuvchining vazifasidir. O'quvchilarning to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidalarini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo so'zi arabcha "to'g'ri yozaman" degan ma'noni anglatadi. Imlo bu jamiyat qabul qiladigan va ishlatadigan qoidalar tizimidir. Imloning maqsadi-yozma muloqotning qulay vositasi bo'lib xizmat qilish, shuning uchun uning bevosita maqsadi nutq mazmunini to'g'ri va aniq

qilib yetkazish. To‘g‘ri yozishni o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ahamiyatli vosita hisoblanadi. To‘g‘ri o‘qiy olmaydigan bola to‘g‘ri yozishni bilmaydi. Aksincha to‘g‘ri yoza olmagan bolalar esa tog‘ri o‘qiy olmaydi. Bu bir- biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Bunday hollar ularning kelajakdagi o‘qishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Dastlab, har bir so‘z, uning o‘qilishi, yozilishi bo‘yicha ishlarni olib boriladi, keyinchalik grammatik qoidaga tegishli mavzular o‘rgatiladi.

Masalan, "Gap mavzusini o‘tishda" to‘g‘ri ko‘chirib yozish, gapni bosh harf bilan yozish, gapning oxiriga nuqta qo‘yish va boshqa sodda qoidalar o‘rgatiladi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik va so‘z yasallishiga oid bilimlarni o‘zlashtirmay turib o‘rganish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalarini uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda imlo bilan uning grammatik usullari o‘rgatiladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun ular bilan birgalikda hamohang ishlash zarur. Shundagina o‘quvchilarda adashish holatlari kamroq uchraydi. Agar o‘qituvchi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va didaktik metodlardan foydalansa, natijasi yaxshi bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchidan o‘ziga harakat va sabr talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q va boshqalar . Savod o‘rganish darslari Toshkent 1996
2. Qozoqboy Yo‘ldoshev Birinchi jild , Toshkent 2000-yil
3. Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting and Internationally Comparable Survey of Financial Literacy, Paris , OECD .
4. "Savod o‘rgatish metodikasi" – Mahmudova M.
5. "Savodxonlik metodikasi" – Abdullayev X.
6. "Boshlang‘ich ta‘limda savod o‘rgatish" – Xo‘jaev A.
7. "Savod o‘rgatish va uning metodlari" – To‘xtasinov N.